

XURSHIDA QODIROVA

**O'ZBEK VA RUS TILLARI
SINTAKSISINING TIPOLOGIYASI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'IM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

XURSHIDA QODIROVA

**O'ZBEK VA RUS TILLARI
SINTAKSISINING TIPOLOGIYASI**

Monografiya

Toshkent – 2021

Monografiya o'zbek va rus tillari sintaksisining qiyosiy tipologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, ikki tilning sintaktik qurilishidagi umumiy va xususiy jihatlari tahlilga tortilgan. Unda o'zbek va rus tillarining sintaksisiga oid ilmiy xulosalar tipologik tahlil etilgan. Monografiyani yaratishda ko'plab o'zbek tilining nazariy manbalari hamda rus tilining so'ngi adabiyotlaridan foydalanildi. Ushbu monografiya tilshunosi, tarjimashunoslik, o'zga tili guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi vakillariga hamda bu sohaga qiziuvechilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Saodat Muhamedova

filologiya fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar:

Nargiza Musulmonova

filologiya fanlari nomzodi

Dilbar Urinbayeva

filologiya fanlari doktori (DcS)

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (2021-yil 29-noyabr) 8-sonli bayonoma)

MUQADDIMA

O'zbek va rus tillarini qiyosiy tahlil qilish bilan bog'liq ishlarning dastlabkisi 1934-yilda yozilgan Yevgeniy Dmitriyevich Polivanovning "Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком" kitobi hisoblanadi. Ushbu kitob nafaqat ikki tilni qiyoslashda, balki tillardagi umumiy va xususiy jihatlari borasidagi ilmiy qarashlarni tizimlashtirishda katta rol o'ynadi. Polivanov ilk bora rus va o'zbek tillarining fonetik hamda grammatik tizimlarini qiyosiy tahlilga tortdi. Biroq uning grammatikasi mazkur tillarning butun tizimini emas, faqat fonetika va morfologiyasini qamrab olgan.

Undan keyin esa 1965-yilda O. Azizov va uning hammualiflari tomonidan qiyosiy tahlil amalga oshiriladi,¹ filologiya fakultetlari uchun qisqa kurs yaratiladi. Olimlarning bu qo'llanmasi qiyosiy tipologiyadan ilk manba bo'lganligi sababli ayrim to'ldirilishi kerak bo'lgan jihatlari, 1995-yilda Shavkat Rahmatullayev tomonidan muayyan darajada to'ldirilgan va u ikki tilni qiyoslab, o'zbek tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotganlar uchun qisqacha bayonli o'quv qo'llanma yaratadi.² Bu tipologik asarlar asosiy manba sifatida bugungi kunga qadar yagona adabiyot bo'lib qolmoqda. Bu xildagi adabiyotning kun tartibga qo'yilmaganligining sababini 2000-yillarning boshida oliy ta'lim muassasalarida o'zga tili guruhlarda o'zbek tili yo'nalishining to'xtab qolganligidan ko'rish mumkin.

1989-yilda V.D. Arakin "Типология языков и проблема методического прогнозирования"³ nomli qo'llanmasida rus, ingliz, island, turk va italiya tillarining tipologik pasportini yaratgan edi. Unda, turk tili tipologiyasi pasporti uchun asos sifatida ko'proq o'zbek tili grammatikasidan foydalanganligi ko'rish mumkin. Biroq o'zbek tilshunosligining rivoji natijasida, qolaversa, rus tilidan farqli o'laroq, tilning tarixiy ildizlari o'rganilib, uning mantiqqa asoslanishi kashf etilgandan so'ng, o'zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlarning paydo bo'lishi bilan rus tili grammatikasidan tubdan farq qilishi ma'lum bo'lib qoldi. Endilikda o'zbek tilini dunyoga yoyish, o'zga til vakiliga targ'ib qilish, til taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tarjima masalalari davr taqozosi hisoblanib, o'zbek tiliga ixtisoslashgan oliy ta'limda rus va o'zbek tillarini

¹ Azizov O. va b. O'zbek va rus tillarining xisoiy grammatikasi (kneska kurs) - Toshkent Universiteti, 1965. - 140 b.

² Rahmatullayev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. - Toshkent: O'zbekiston, 1995. - 112 b.

³ Arakin V.D. Типология языков и проблема методического прогнозирования. - М.: Высшая школа, 1989. С.142